

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 109 (898), 2023-yil 4-iyun, yakshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



QARDOSHLIK RISHTALARIGA ASOSLANGAN ABADIY DO‘STLIK VA HAMKORLIK MUNOSABATLARI



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 3-iyun kuni amaliy tashrif bilan Anqara shahrida bo‘lib, joriy yil 28-maydagi saylovda Turkiya Respublikasi Prezidenti etib qayta saylangan Rejep Tayyip Erdog‘anning inauguratsiya marosimida ishtirok etdi.

Esenbog‘a xalqaro aeroportida oliy martabali mehmonni Turkiya hukumati vakillari va Anqara muzofoti rahbariyati kutib oldi.

Tadbirda dunyoning 80 ga yaqin mamlakatlari vakillari — davlat va hukumat rahbarlari, parlament spikerlari, yuqori darajadagi rasmiy shaxslar hamda Turkiya davlatlar tashkiloti, Shimoliy Atlantika shartnomasi tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti va boshqa nufuzli xalqaro tuzilmalar rahbarlari qatnashdi.

Marosim chog‘ida Prezidentimiz Turkiya yetakchisini saylovdagi

g‘alabasi bilan yana bir bor qutlab, lavozimga kirishgani bilan tabrikledi, Turkiya xalqiga katta muvaffaqiyatlar va farovonlik tiladi.

Tadbir doirasida davlatimiz rahbari marosimga taklif etilgan mamlakatlar yetakchilari va xalqaro tashkilotlar rahbarlari bilan fikr almashdi.

Shu bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkiyaga tashrifi yakunlandi.

O‘zA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

BUYUK O‘ZBEK YO‘LI

MILLIY G‘OYA

xalqni birlashtiruvchi va harakatga keltiruvchi kuch

Dunyo miqyosida globallashuvning shiddatli tus olishi xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlashga oid muammolarning yanada dolzarb ekanini ko‘rsatmoqda. Tobora avj olayotgan mafkuraviy xurujlar, yot g‘oyalar ta‘sirida inson qalbi va ongini zabt etishga bo‘lgan harakat kengayib borayotganini kuzatish mumkin.

Prezidentimiz qayd etganidek, “Hozirgi globallashuv davrida, inson ongi va qalbi uchun kurash kuchaygan bir paytda turli g‘oyaviy tahdid va xurujlar jamiyatimizning ma‘naviy hayotiga ta‘sir ko‘rsatishning kuchli quroli sifatida namoyon bo‘lmoqda”. Binobarin, mafkuraviy xurujlar inson e‘tiqodiga, turli din, millat va elatlar hamjihatligiga rahna solish orqali siyosiy ta‘sir doirasiga olish vositasiga aylanib qolayotganini inkor etib bo‘lmaydi. Zero, bugungi kunda dunyoda shiddatli kechayotgan bunday jarayonlar ijtimoiy hayotning barcha



jabhalariga, jumladan, ma‘naviy-mafkuraviy sohalarga ham jiddiy ta‘sir o‘tkazmoqda. Shunday murakkab sharoitda tinchlik, barqarorlikni asrash, mustaqillikni mustahkamlash har bir davlat oldida turgan ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Xususan, yurtimizda mafkuraviy xurujlarga qarshi ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar ta‘sirchan-

ligini oshirish, mazkur sohadagi ichki va tashqi tahdid hamda xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish, jamiyatda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash borasida jiddiy fikrlash taqozo etilmoqda.

Davomi 3-betda

TRANSPORT INFRATUZILMASI

Joriy yil 10-apreldan 10-mayga qadar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi, Transport, Ichki ishlar va Sog‘liqni saqlash vazirliklari hamkorligida foydalanishda bo‘lgan avtotransport vositalarining ekologik holati yuzasidan respublika miqyosida “Toza havo” oyligining birinchi bosqichi o‘tkazildi.

TIRBANDLIKLAR BARTARAF ETILISHI poytaxtimiz havosini qay darajada yaxshilaydi?

Ushbu oylik “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi va “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi qonunlar ijrosi doirasida tashkil etilib, asosiy e‘tibor avtotransportlar tashlamalarini kamaytirishga qaratildi. Tashkilotchilarning ta‘kidlashicha, so‘nggi yillarda ishlab chiqarish korxonalarini, avtomobillar soni ko‘payishi atmosferaga chiqarilayotgan tashlamalar miqdori sezilarli o‘rtishiga sabab bo‘lyapti.

Bugungi kunda respublikamizda 4 millionga yaqin avtotransport vositasi mavjud. Shundan 100 mingtasi nosoz hisoblanadi. Ulardan atmosferaga bir yilda o‘rtacha 1,3 million tonna zararli tashlama chiqadi, bu umumiy hajmning 63 foizini tashkil etadi. Ushbu ko‘rsatkich Toshkent shahrida qariyb 90 foizga borib qoladi. 2022-yil yakuniga ko‘ra, havo sifati xalqaro indeksida poytaxtimiz 20-o‘rinni egallagan.

Davomi 4-betda



BIZ VA DUNYO

MARKAZIY OSIYO VA YEVROPA ITTIFOQI ALOQALARINING YANGI ISTIQBOLLARI

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2-iyun kuni Cho‘lponota shahrida bo‘lib o‘tgan “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” ikkinchi sammitida ishtirok etdi va nutq so‘zladi.

Davlatimiz rahbari o‘z nutqida yig‘ilganlarga O‘zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi davlatlari o‘rtasidagi hamkorlikning bugungi holati haqida ma‘lumot berdi. Ostonada o‘tgan birinchi uchrashuvdan so‘ng qisqa davrda amalga oshirilgan

ishlarni sarhisob qildi. Shuningdek, O‘zbekiston va Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari va yevropalik sheriklar hamkorligidagi ijobiy, sifatlari o‘zgarishlarni qayd etdi.

Davomi 2-betda

TURIZM

SAYYOHLIK SOHASI SALOHIYATI

Qatiq solingan kosani teskari tutsa ham to‘kilmaydi. Qanday qilib?



Joriy yil 29-mart kuni Prezidentimiz rahbarligida turizm salohiyatini rivojlantirish yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida xorijiy sayyohlarning O‘zbekistonda bir kun ko‘proq qolishi evaziga yillik turizm eksport hajmini 300 million dollarga oshirish imkonini mavjudligi, turizm sohasiga berilayotgan imtiyozlardan samarali foydalanish zarurligi ta‘kidlab o‘tilgan edi. Ayni paytda Navoiy viloyatida ham 3 ta tuman va 20 ta mahalla turizmga ixtisoslashtirilib, ularda alohida soliq tartibi joriy qilindi.

Davomi 5-betda

MUQOBIL ENERGIYA

ENG MAQBUL YECHIM

yoxud "yashil energiya"ni joriy etish bo'yicha yetakchi davlatlar qatoriga kirishning oson usuli

Mamlakatimizda sanoatning keskin rivojlanishi, qolaversa, aholi sonining ortishi elektr energiyasiga bo'lgan talab o'sishiga olib keldi. Bugun yurtimizda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining 90 foizidan ortig'i issiqlik elektr stansiyalari ulushiga to'g'ri keladi. Bu elektr stansiyalarida tabiiy gaz, ko'mir va mazut sarflab, elektr energiyasi ishlab chiqarilmoqda, degani. Prezidentimiz ta'бири bilan aytganda, valyutani yoqib, elektr energiya ishlab chiqaryapmiz. Bundan tashqari, elektr energiyasini ishlab chiqarish sarf-xarajalarining qimmatligi, dunyoda tabiiy gaz, neft va ko'mir kabi tabiiy boyliklar zaxirasi tugayotgani, atmosferaga zararli ta'sirlari, elektr energiyasiga bo'lgan talabning oshishi bizdan jiddiy o'ylanish va ekologik toza, qayta tiklanuvchan energiya manbalaridan foydalanishni taqozo etmoqda.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari ekologik jihatdan toza va atrof-muhitga hech qanday zarar keltirmaydi. Respublikamizda eng samarali va qulay qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosan quyosh va shamol energiyalari hisoblanadi.

Prezidentimizning "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning

tarqiqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonida mamlakatimizda "Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohalarda joriy etish orqali 2026-yilga qadar iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish va havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini 20 foizga qisqartirish choralarini ko'rilishi nazarda tutilgan. Mazkur strategiyaning asosiy vazifalari

dan biri iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish, muqobil energiya imkoniyatlari va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishdan iborat.

E'tiborlisi, bu borada mamlakatimizda tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Nafaqat sanoat tarmoqlari va ijtimoiy soha obyektlarida, shu bilan birga, aholi o'rtasida ham muqobil energiyadan foydalanish afzalliklari, imkoniyatlari va iqtisodiy samaralari haqida keng targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilmoqda. Natijada xorijiy sarmoya yoki davlat sherikchilik asosida qurilayotgan shamol va quyosh fotoelektr stansiyalaridan tashqari, davlat korxonasi va tashkilotlari, tadbirkorlik subyektlari va aholi xonadonlarida ham muqobil energiya, xususan, quyosh panellaridan foydalanish keng yo'lga qo'yilmoqda.

Prezidentimizning joriy yil 16-fevraldagi "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etishni jadallatirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida berilgan imtiyozlar joylarda "yashil energetika"ga o'tish ishlari yangi bosqichga olib chiqdi. Mazkur qaror mamlakatimizda elektr energiyasi taqchilligining qoplanishiga qaratilgan muhim hujjat bo'ldi. Unga ko'ra, qator tarmoqlarda qayta tiklanuvchi manbalarni keng joriy qilish, bu boradagi ishlarni kompleks tashkil etish hamda investorlar uchun qulay sharoit yaratish mexanizmlarini amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, xonadonlarda kichik quvvatli quyosh panellarini o'rnatishni rag'batlantirish bo'yicha "Quyoshli xonadon" dasturini amalga oshirish iste'molchilarga qulaylik yaratmoqda.

Birgina Jizzax viloyatining Paxtakor tumani misolida oladigan bo'lsak, hududda 15 848 ta iste'molchi mavjud.

Ularning 15 168 nafari jismoniy va 680 tasi yuridik shaxs sanaladi. Tumanning 2023-yilda elektr energiyasiga yillik talabi 98,7 million kilovattni tashkil qiladi. Ushbu ehtiyojni to'la qondirish maqsadida kichik quvvatli panellarni 159 obyektda, 17 850 kvadrat maydonga o'rnatish rejalashtirilgan. Shundan 86 ta aholi xonadoniga 400 ming kilovatt soat, joriy yilda foydalanishga topshiriladigan ko'p qavatli uylarda 60 ming kilovatt soatli kichik fotoelektr stansiyalari o'rnatish ishlari boshlangan. Ahamiyatlisi, iste'molchi ehtiyojidan ortgan elektr energiyasining har kilovatini 1000 so'mdan davlatga sotib, qo'shimcha daromad topishi yo'lga qo'yilmoqda. Paxtakorlik Farrux Primqulov ushbu imtiyozlardan to'liq foydalanib kelayotganlardan biri.

Xonadonimga 18 kilovattli quyosh panelini o'rnatganman. Buning uchun o'z mablag'imdan tashqari, bankdan uzoq muddatli 15 foizli imtiyozli kredit oldim. Ayni paytda soliq.uz platformasidan ro'yxatdan o'tib, har kuni o'limiz ehtiyojidan ortiq ishlab chiqarilgan 12 kilovatt soat elektr energiyasini davlatga sotayman, — deydi u.

Qaror asosida joriy yil Jizzax viloyatidagi 498 ta ijtimoiy soha obyekti va davlat idorasining 25 ming kvadrat metr tom qismiga 5 megavatt kichik quvvatli quyosh paneli, 8,3 ming litrli gleyo-kollektorlar o'rnatiladi, — deya izohlaydi "O'zenergo-inspeksiya" Jizzax hududiy bo'limi boshlig'i Baxtiyor Norbekov. — 750 tadbirkorning bino va inshootlari tom qismiga jami 15 megavatt quvvatli, mingdan ziyod aholi xonadonlariga quvvatli 6 megavatt quyosh panellari o'rnatiladi. Joriy yilda foydalanishga topshiriladigan 36 ta ko'p qavatli uy ham energiyatejamkor qurilmalar bilan ta'minlanadi. Bundan tashqari, Zafarobod tumanida loyiha qiymati 4 milliard 300

million so'mlik 2 ta kichik mikro gidroelektr stansiyasi barpo etiladi.

Umuman, viloyatda kamida 2 ming megavatt qayta tiklanuvchi energiya manbalari uchun salohiyat bor. Shundan kelib chiqib, Jizzaxda 2023-yilda 270 megavatt quyosh energiyasi quvvatlari ishga tushiriladi va shuning hisobiga 236 million kilovatt soat energiya ishlab chiqarilib, tanqislik ortig'i bilan qoplanadi. Buning hisobiga jami 71 million kub metr gaz tejajadi.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish afzalliklarini o'rganib, universitetimizda muqobil energiya imkoniyatlaridan foydalanish, tejamkor elektr energiyasi texnologiyalarini joriy etishga alohida e'tibor qaratganmiz. Shu kungacha universitetimiz bo'yicha jami 222 ta quyosh paneli o'rnatib, ayni paytda ushbu qurilmalarning beminnat xizmatidan foydalanayapmiz. Kelajakda boshqa binolarimizga ham quyosh panellarini o'rnatmoqchimiz. Bundan tashqari, ko'chalarni yoritishda, sun isitishda ham shundan foydalanishni rejalashtirganmiz. Umuman, universitetimiz bo'yicha elektr tejamkorlikni 40 foizga yetkazmoqchimiz, — deydi Jizzax davlat pedagogika universiteti rektori Shavkat Sharipov.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini o'rnatishning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, bu borada bir qator imtiyozlar berilishi tadbirkorlik subyektlarining ham bu sohaga e'tiborini oshirmoqda.

Zarbdor tumanidagi elektr tarmoqlari korxonasi muhandisi Farhod O'ro'rov hududda amalga oshirilayotgan ishlar haqida quyidagilarni aytib berdi.

Ayni paytda tumanimizdagi korxonasi va tashkilotlarga quvvati 227 kilovatt bo'lgan muqobil elektr manbalari o'r-

natilib, foydalanishga topshirildi. Jumladan, tumanimizda birinchilardan bo'lib "Bo'ston pall tri" MCHJ quvvati 10 kilovattli, "Zarbdor parranda" MCHJ 20 kilovattli, "Zarbdor elevator" MCHJ esa 30 kilovattli quyosh panellari o'rnatib, o'zini elektr energiyasi bilan ta'minlab kelmoqda. Bularni ko'rib, boshqa tadbirkorlik subyektlari, jumladan, avtomobillarga gaz quyish shoxobchasi egalari ham quyosh panellarini o'rnatishga qiziqish bildirmoqda. Viloyatimizda 72 ta avtomobillarga siqilgan gaz sotish shoxobchasi mavjud. Agar shularning kamida 50 foizi muqobil manbalarga o'tkazilsa, bir yilda viloyatda besh million besh yuz kilovattgacha elektr energiyasi tejalisiga erishiladi.

Soha mutaxassislarining xulosasiga ko'ra, 2023-2025-yillarda dunyoning elektr energiyasiga bo'lgan talabi har yili 3 foizdan o'sib boradi. Birgina Jizzax viloyatida elektr yetishmovchiligi o'tgan yilda 123 million kilovatt soatga yetgan bo'lsa, joriy yilda bu raqam 156 million kilovatt soat bo'lishi kutilmoqda. Ayni paytda esa ushbu yetishmovchiliklarni qoplashning eng maqbul varianti sifatida muqobil energiya imkoniyatlaridan, asosan, quyosh nurlaridan samarali foydalanish ko'rilmoqda. Zero, yurtimizda yilning uch yuz kundan ortig'i quyoshlidir.

Darhaqiqat, mamlakatimizda muqobil energiya manbalarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Prezidentimizning yuqoridagi qarori esa mazkur sohani yanada rivojlantirishning huquqiy asosini yaratdi, bu borada boshlangan ishlar ko'lamini kengaytirdi. E'tiborlisi, aholi muqobil energiya afzalliklarini amalga ko'rmoqda.

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan "yashil energiya"ni joriy etish bo'yicha e'tibor, imtiyoz va imkoniyatlar kuchaygan. Xorijiy investorlar, tadbirkorlar va aholining ham bu sohaga qiziqishi ortib boryapti. Bularning bari yaqin kelajakda mamlakatimizning elektr energiyasiga bo'lgan o'z ehtiyojini to'liq ta'minlashi barobarida, dunyoning "yashil energiya"ni joriy etish bo'yicha yetakchi davlatlari qatoridan joy olishiga xizmat qilishi shubhasiz.

Farhod NE'MATOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

BIZ VA DUNYO

MARKAZIY OSIYO VA YEVROPA ITTIFOQI ALOQALARINING YANGI ISTIQBOLLARI

Boshlanishi 1-betda

Prezident Shavkat Mirziyoyev ikki mintaqa o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari, xususan, savdo-sotiq, transport yo'laklarini bog'lash, sarmoyaviy va texnologik sheriklik, raqamli aloqa, iqlim muammolariga qarshi kurashish va turizmni rivojlantirishga alohida to'xtalib o'tdi.

Uchrashuv yakunlari va O'zbekiston Prezidentining nutqi xalqaro ijtimoiy-siyosiy va ekspert-tahlil doiralari o'rtasida keng rezonansga sabab bo'ldi.

Sharhlarda bugungi kunda Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi munosabatlar izchil rivojlanib borayotgani hamda ular ayni paytda o'z taraqqiyotining hal qiluvchi davrini boshdan kechirayotgani haqida fikrlar bildirilmoqda. Shu bilan birga, O'zbekiston mintaqalararo hamkorlik jarayonida muhim o'rin tutadi hamda ko'p jihatdan mamlakatimizning izchil ichki va tashqi siyosati tufayli butun Markaziy Osiyo mintaqasi uchun yangi istiqbollari ochilayotgani qayd etilyapti.

Yoanna Marshalek-Kava, Nikolay Kopernik nomidagi universitetning siyosiy tashkilotlar kafedrasini mudiri, professor (Polsha):

— "Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi" formatidagi mavjud munosabatlar hamda O'zbekiston rahbari va Yevropa Kengashi Prezidenti Sharl Mishel o'rtasidagi uchrashuv va muzokaralar natijalaridan ko'rinib turibdiki, Qirg'izistonda bo'lib o'tgan mazkur uchrashuv Yevrosiyo qit'asining ikki eng muhim mintaqasi o'rtasida savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy, ilmiy-texnikaviy va gumanitar hamda xavfsizlik sohaslarida, shuningdek, har tomonlama, teng huquqli va ishonchli sheriklik hamda hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan.

Ikkinchi sammit natijalari uni yutuq deb atashga asos bo'lib, Markaziy Osiyo davlatlari va Yevropa Ittifoqi o'rtasida yangi turdagi munosabatlarni shakllantirish haqida gapirishga imkon beradi. Chunki u Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlik doirasida yirik ustuvor loyihalarni amalga oshirish imkoniyatini ochdi.

Bugungi kunda ushbu munosabatlar barqaror bo'lib, ular hozirda o'z taraqqiyotida hal qiluvchi davrni boshdan kechirmoqda. Siyosiy sohada har ikki mintaqa davlatlari o'rtasida yuqori darajadagi o'zaro ishonch o'rnatilgan, iqtisodiyotda ular bir-biri uchun muhim hamkor hisoblanadi.

O'zbekiston Yevropaga kerakligi aniq va bu mubolag'a emas. Ma'lumki, Polsha Yevropa Ittifoqining boshqa davlatlariga qaraganda o'zbek to'qimachilik mahsulotlarini ko'proq sotib oladi va ikki



yil ketma-ket O'zbekiston mahsulotlarini birinchi import qiluvchi bo'lib kelmoqda. Polsha to'qimachilik sanoatini O'zbekiston mahsulotlarisiz qo'llab-quvvatlab bo'lmaydi.

Qolaversa, Markaziy Osiyo Osiyodan Yevropa davlatlariga eng muhim transport-kommunikatsiya omili hisoblanadi.

Yevropaning Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun jozibadorligi Yevropa Ittifoqi mamlakatlari munosabatlar markazida hech qanday siyosiy talablarni qo'ymagan holda sarmoya va nou-xau taklif etishi bilan bog'liq.

O'zbekiston rahbari Shavkat Mirziyoyevning sammitdagi ishtiroki mamlakatning keng qamrovli qudrati va xalqaro raqobatbardoshligini oshirish, qo'shma innovatsiyalar, nafaqat O'zbekiston — Yevropa, balki innovatsion hamkorlik uchun ko'p tomonlama muloqot platformasini yaratish, innovatsiyalar Markaziy Osiyo va Yevropa davlatlari o'rtasidagi amaliy hamkorlikning yanada kuchli harakatlantiruvchisiga aylanishi uchun muhim masalalarni muhokama qilish imkonini beradi.

Yeji Shukalskiy, Polsha Tabiiy va gumanitar fanlar universiteti professori, Markaziy Osiyo bo'yicha mutaxassis:

— Markaziy Osiyoning asosiy davlatlari — O'zbekiston va Qozog'iston xalqaro tashkilotlar va mintaqaviy tuzilmalar doirasidagi muhim muzokaralar borasida doimiy platformani ifodalagan uchun xalqaro diplomatiya markazlariga aylandi.

Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi davlatlari rahbarlarining Qirg'izistonda bo'lib o'tgan ikkinchi sammiti yakunlarini, Markaziy Osiyo va YI davlatlari rahbarlarining ana shunday formatda uchrashgani tufayli, muvaffaqiyatli va tarixiy deb atash mumkin.

Shu bilan birga, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Yevropa Kengashi Prezidenti Sharl Mishelning uchrashuvi 2022-yil oktabr oyida Toshkentda bo'lib o'tgan muzokaralar va erishilgan kelishuvlarning mantiqiy davomi bo'ldi.

Yevropa Ittifoqining yuqori martabali rasmiysi va O'zbekiston rahbarining alohida uchrashuvi YI



uchun rasmiy Toshkent Brusselga naqadar muhim ekanini tasdiqlaydi.

Yevropa Ittifoqi O'zbekiston Prezidentining Markaziy Osiyoda o'nlab yillar davomida to'planib qolgan qator muammolarni hal etish va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlarini yuksak baholaydi va qo'llab-quvvatlaydi. O'zbekistonning YI davlatlari, jumladan, Polsha bilan savdo aylanmasi mamlakat "GSP+" imtiyozli savdo tizimiga kiritilganidan keyin faol o'sib bormoqda.

Yangi O'zbekistonda keng ko'lamli islohotlar davom etar ekan, Yevropa Ittifoqi rasmiy Toshkent bilan amaliy hamkorlik va aloqalarini mustahkamlashga ko'maklashmoqda. Shu bois, Brussel O'zbekiston tomonining "Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi" uchinchi sammitini 2024-yilda O'zbekistonda o'tkazish tashabbusini qo'llab-quvvatlaydi.

Ishonchim komilki, Qirg'izistondagi sammit yakunlari O'zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o'rtasida Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitim imzolashini uchun yaxshi asos bo'lib xizmat qiladi.

Karlos Uriarte, "Panyevropa ittifoqi" ijtimoiy-siyosiy harakatining Ispaniyadagi yoshlar qanoti raisi:

— Nazarimda, ushbu sammit Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi aloqalarini saqlab qolish va mustahkamlash uchun noyob va muhim maydondir.

Yashirmayman, so'nggi besh yilda O'zbekiston ham MDH, ham Markaziy va Janubiy Osiyoning boshqa xalqaro formatlarida o'z faoliyatini sezilarli darajada faollashtirdi. Ishonchim komilki, buni mamlakatda yaqinda bo'lib o'tgan va bo'lajak global voqealar tasdiqlaydi.

Umuman olganda, YI va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarining o'sib borayotgan dinamikasi istiqboldagi strategik hamkorlik uchun salmoqli salohiyat mavjudligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, Yevropa tomoni O'zbekistonning savdo to'siqlarini bartaraf etish tashabbusini, shuningdek, respublikaning JSTga tezroq a'zo



bo'lishini qo'llab-quvvatlashiga ishonch bildirmoqchiman.

Aytdigan, ushbu yo'nalishda birinchi qadam allaqachon qo'yilgan. YI O'zbekistonning xalqaro konvensiyalarga qo'shilishi, jumladan, atrof-muhitni boshqarish va inson huquqlari kabi sohalarda erishgan yutuqlarini e'tirof etgan holda, O'zbekistonning savdo imtiyozlari, "GSR+" tizimidan foydalanish imkoniyatini to'liq qo'llab-quvvatlaydi.

O'ylaymanki, dunyo misli ko'rilmagani siyosiy va iqtisodiy muammolarga duch kelayotgan bugungi kunda O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari biznes tuzilmalari bilan yangi aloqalar o'rnatish, investitsiya, savdo va logistika sohaslarida hamkorlikni faollashtirish bo'lishi kerak.

Shu bilan birga, hamkorlik iqtisodiy masalalardan tashqari qiziqish shart. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Cho'lponotadagi nutqida ta'kidlaganidek, ushbu hamkorlik ta'lim, sog'liqni saqlash, iqlim, raqamli va "yashil" texnologiyalarni qamrab olishi kerak.

Mehmet Seyfettin Erol, Anqara Inqiroz va siyosat tadqiqot markazi "ANKASAM" direktori:



— Men Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi davlatlari o'rtasidagi munosabatlarning rivojlanishini, ayniqsa, O'zbekistonning YI bilan faol hamkorligini katta qiziqish bilan kuzataman.

Sammit doirasida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Yevropa Kengashi Prezidenti Sharl Mishel bilan muzokaralari yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini tashqi siyosat sohasida amalga oshirishning mantiqiy davomi bo'ldi.

Yevropa Kengashi Prezidenti yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ortga qaytmas demokratik o'zgarishlar va iqtisodiy islohotlar dasturini har tomonlama qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi bayonoti, shuningdek, konstitutsiyaviy referendumning muvaffaqiyatli o'tkazilgani bilan tabriklashi yuqoridagi fikrning yorqin tasdiqi'dir.

O'zbekiston va YI rahbarlarining muzokaralarida o'zaro tovar ayirboshlash hajmini oshirish va diversifikatsiya qilish, "GSP+" imtiyozli savdo rejimi mavjudligini uyatirish, samarali transport yo'nalishlarini, birinchi navbatda, Transkaspian tranzit yo'lagini rivojlantirish bo'yicha kelishuvlarga erishilgani alohida ahamiyatga ega.

Ishonchim komilki, "yashil" energiya, innovatsiyalar va yuqori texnologiyalar, raqamlashtirish, ekologiya, ta'lim, turizm va boshqa yo'nalishlarda qo'shma dastur hamda loyihalarni amalga oshirishni faollashtirish nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasi uchun aholi farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Viktor Kim, Tojikiston Milliy fanlar akademiyasi Osiyo va Yevropa mamlakatlari instituti ilmiy xodimi:



— Ushbu uchrashuv Markaziy Osiyo mintaqasida jahon iqtisodiyotini rivojlantirishning markazi sifatida yangi davr ochilganini tasdiqladi. Bu nafaqat Markaziy Osiyoning yagona mintaqasi sifatida, balki mintaqaning Yevropa va Osiyo o'rtasida bog'lovchi ko'priki sifatida tan olinishi hamdir.

O'zbekiston Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo mamlakatlari haqidagi nuqtayi nazarini o'zgartirishga muhim hissa qo'shdi va O'zbekistonning so'nggi qariyb yetti yil ichidagi izchil ichki hamda tashqi siyosati tufayli mintaqadagi barcha mamlakatlar uchun yangi istiqbollari ochilmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev va Yevropa Kengashi Prezidenti Sharl Mishel o'rtasida 2-iyun kuni bo'lib o'tgan muzokaralar Yevropa Ittifoqining O'zbekiston bilan yaqinlashuvi o'zgarishini, shuningdek, yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlar va iqtisodiy islohotlarning YI tomonidan tan olinishi va qo'llab-quvvatlanishini tasdiqladi.

"Dunyo" AA

NUQTAI NAZAR

BUYUK O'ZBEK YO'LI

Biz buyuk tarix, buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan xalqmiz!

Shavkat MIRZIYOYEV, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

IFTIXORIMIZ RAMZI

Bayrog'imizda Vatanimizga bo'lgan mehr-muhabbatimiz mujassam

Zafar XUDOYBERDIYEV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati



Davlat ramzlari har bir xalqning mustaqilligi, ozodligi, tinchligi va barqarorligi timsoli. Davlat bayrog'i va uning ramzi bugungi O'zbekiston hududida qadimda mavjud bo'lgan davlatlar bilan tarixan bog'liqlikni anglatadi hamda mamlakatimizning milliy-madaniy an'analarini o'zida mujassamlashtiradi.

Yer yuzida ikki yuz ellikka yaqin davlat bor va albatta, har bir davlatning o'z ramzlari, bayrog'i mavjud. Har bir bayrog' ayri-ayri rang va timsollarga ega. Ular bilan yonma-yon balqib turgan bayrog'imiz hech kimdan kam emasligimiz va kam bo'lmisligimizni ko'rsatib turadi.

Bayrog' qadim-qadimdan har bir xalq uchun mustaqillik, hurlik, tinchlik va barqarorlik timsoli bo'lib kelgan. Ajdodlarimiz ham yurt bayrog'ini muqaddas bilib, uni ko'z qorachig'idek asragan. Buyuk Sohibqiron Amir Temur g'oliblik bayrog'ini yuksak ko'tardi. Bu bayrog' ostida buyuk el birlashdi, u barpo etgan ulug' saltanatni dunyo tan oldi.

Bugungi kunda ham bayrog' turli bayram tantanalarida, yurtimiz delegatsiyalari qatnashayotgan xalqaro miqyosdagi tadbirlarda, nufuzli sport musobaqalarida Vatanimizning sha'ni, xalqimizning g'urur va iftixorini yorqin aks ettiradi. Yurtimizdagi bayram shodiyonalari, tantanalari chog'ida ko'chalarimizga ko'rk bag'ishlab turgan bayrog'imiz har birimizda g'urur-iftixor tuyg'usini uyg'otadi.

2022-yil 18-noyabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasida "O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida"gi qonunga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritish tashabbusi ilgari surilgan edi. Ushbu tashabbus zahirida xalqimiz, keng jamoatchilikning taklif va istaklari turibdi. Chunki amaldagi qonunda davlatimiz bayrog'ining qayerlarga doimiy qo'yilishi, o'rnatilishi, davlat bayrog'i tasviri tushirilgan belgilardan ishlab chiqarilayotgan yoki realizatsiya qilinayotgan tovarlarni o'tkazish uchun tijorat maqsadlarida foydalanish mumkin emasligi kabi normalar mavjudligi masalasiga oydinlik kiritish bilan bir qatorda, ularni cheklov sifatida ham baholash mumkin. Bu esa fuqarolarimiz, keng jamoatchilik, jumladan, tadbirkorlarimizning davlatimiz ramzi, iftixori bo'lgan bayrog'imizdan va uning tasviridan kengroq foydalanishiga yo'l bermayotir.

Amaldagi qonun milliy istiqlolimizning ilk yilida, ya'ni 1991-yilda qabul qilinganiga e'tibor qaratsak, u davrdagi qarashlar va yondashuvlar hozirga kelib tubdan o'zgardi. O'sha davrlarda ijtimoiy hayotimiz "davlat — jamiyat — inson" paradigmasiga asoslanib, davlat manfaatlarini ustun qo'yilgan bo'lsa, joriy yilning 30-aprelda xalqimiz tomonidan umumxalq referendumini orqali qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonunning tag-zamirida "inson — jamiyat — davlat" paradigmasi turishi bunday qarashlar o'zgariganidan dalolat beradi. Inson manfaatlarini ustunligini ta'minlash nuqtayi nazaridan amaldagi qonunga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritish bugungi kunning muhim talabidir.

Amaldagi qonunga hozirgacha 5-marta tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritilib, takomillashtirilgan. Yuqorida bildirilgan fikrlar hamda so'nggi yillardagi islohotlar, ochiqlik siyosati natijasida fuqarolarimiz siyosiy ongi jadal o'sib borayotganini, iqtisodiyotda xususiy sektor ulushi ortayotganini hisobga olsak, amaldagi qonun konseptual jihatdan o'zgartish va qo'shimchalar kiritishga muhtoj ekaniga yana bir bor amin bo'lamiz.

Shundan kelib chiqib, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining bir guruh deputatlari tomonidan "O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun loyihasi ishlab chiqildi va jamoatchilik muhokamasiga qo'yildi.

Mazkur qonun loyihasida quyidagilar nazarda tutilmoqda:

— Davlat bayrog'indan sport musobaqalarida, ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarida, madaniy va o'zga ommaviy tadbirlarda, oilaviy bayramlarda, xotiraviy sanalarni bayram qilishda hamda boshqa hollarda ham bayrog'imizga nisbatan zarur hurmatni ta'minlagan holda foydalanishga ruxsat berish;

— davlat ramziga zarur hurmat bilan muomala qilgan holda undan va uning tasviri tushirilgan belgilardan jamoat joylari va binolarda, yashash yoki ish joylarida hamda ularga tutash bo'lgan hududlarda, transport vositalarining salonida foydalanish mumkinligini belgilash;

— davlat organlarining ramzlarida (bayrog', geraldik belgi) va ularning rasmiy veb-saytlarida davlat bayrog'ining tasviri tushirilgan belgilardan foydalanishga huquqiy asos o'rnatish;

— davlat bayrog'i tasvirini uski kiyimga bezatish maqsadida aks ettirish imkoniyatini yaratish belgilab berilmoqda.

Oddiy aytganda, bu o'zgarishlardan keyin fuqarolar ham bayrog'imizga hurmat saqlagan holda undan o'z xonadonlarida, ish joylarida erkin foydalanishi mumkin bo'ladi. Ayni paytda O'zbekiston fuqarolari, shuningdek, O'zbekistonda yashaydigan boshqa shaxslar bayrog'imizni hurmat qilishi shart ekanini bilan bog'liq talab saqlanib qoladi.

Bir so'z bilan aytganda, amaldagi qonunga bunday o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi markaziy ko'chalarida, maydonlarda, boshqa jamoat joylarida va obyektlarda nafaqat bayram kunlari, balki kundalik hayotimizda ham davlatimiz bayrog'ini ko'rish, undan faxrlanish tuyg'ularini kuchaytiradi va uni milliy g'ururimiz timsoliga aylantiradi. Zero, bayrog'imizda ruhiyatimiz, g'urur va iftixorimiz, Vatanimiz va xalqimizga bo'lgan mehr-muhabbatimiz, kelajakka ishonchimiz mujassamdur.

Mansur MUSAYEV, Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti bo'lim boshlig'i, siyosiy fanlar doktori

Boshlanishi 1-betda

Jahon geosiyosiy maydonida globalashuv jarayonlari kuchayishi hamda zamonaviy axborot texnologiyalari jadal rivojlanishi keskin buriilish yasa-moqda. Dunyoning turli mintaqa va davlatlarida kechayotgan ayanchli voqealar tahlili ommaviy axborot vositalari, zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan, ijtimoiy tarmoqlar va elektron nashrlar ko'p hollarda ayrim buzg'unchi kuchlar qo'lda turli soxta, zararli g'oya va mafkuralarni targ'ib etishning qulay va tezkor vositasiga aylanib qolayotganini ko'rsatayotir. Bu kabi tahdidlar milliy va umuminsoniy qadriyatlar yemirilishiga, zo'ravonlik, inson taqdiri, jamiyat hayotiga bepisandlik, mas'uliyatsizlik, loqaydlik, andishasizlik, behayollik kabi illatlar ildiz o'tishiga zamin yaratmoqda. Natijada odamzod o'z tarixiy, diniy, milliy-ma'naviy ildizlaridan uzilib qolmoqda. Mazkur holat jahonda-gi ko'plab davlatlarda umumiy tendensiyaga aylanib bormoqda.

Globalashuv sharoitida mafkuraviy kurashlar g'oh oshkora, g'oh pinhona tus olayotgani ogoh, sezgir va hushyor bo'lishni talab etmoqda. Dunyo miqyosida yuz berayotgan eng xavfli yovuz illat mafkuraviy xurujlar o'zga bir dav-



Yovuzlik, jaholat insonni va jamiyatni tubanlikka boshlovchi, odamlarni g'arazli niyat va baliq maqsadlarga undovchi mafkuraviy xurujlar doimo insoniyat uchun xatarli hisoblangan. Insonparvarlik tamoyiliga zid bo'lgan, jamiyatda parokandalikni vujudga keltirish orqali bir millatni boshqasidan ustun qo'yadigan, oliy irq da'vosida boshqa xalqlarni qirg'in qilishga chaqiradigan yovuz g'oyalari mafkuraviy xurujlardir.

Shu o'rinda bu xurujlar muayyan kuchlar tomonidan kishilar qalbi va ongiga yot g'oyalarni singdirish maqsadida ularning hissiyotlari, e'tiqodi va tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatishda jamiyat turmush tarzi va mentalitet-



lat fuqarolarining qalbi va ongini zabt etish, mafkurasidan voz kechirish orqali "o'zgacha" mafkuralarni ongiga singdirishda namoyon bo'lmoqda.

Bugun shiddat bilan o'zgarayotgan dunyoda ma'naviy tubanlik ta'siri oqibatida madaniyatsizlik, e'tiqodsizlik kabi qator "ta'limotlar" oshkora, ba'zan esa yashirin tarzda targ'ib etilmoqda. Natijada milliy ruh, millatning o'ziga xosligi va asriy qadriyatlarini zimdan yemirishga zamin yaratilmoqda.

dagi o'zgarishlarni teran anglagan holda g'oyaviy-mafkuraviy, ruhiy ta'sir o'tkazishda noan'anaviy va noxolis usullardan foydalanib, o'zlarining g'arazli maqsadlarini "puxta" rejalar asosida amalga oshirishini anglash lozim. Mafkuraviy xurujlar shaxsga, muayyan tashkilot va davlatga yo'naltiriladi, uning asl maqsadi o'sha shaxs, tashkilot va davlatning normal hayot tarzi buzilishini nazarda tutgan siyosiy va ijtimoiy guruhlarining g'arazli niyatlaridan kelib chiqadi.



MILLIY G'OYA
xalqni birlashtiruvchi va harakatga keltiruvchi kuch

O'z navbatida, mafkuraviy xurujlar inson, jamiyat tushunchalari doirasidan chiqib ketib, yaxlit insoniyat, butun kishilik taqdiri bilan bog'liq global masalalarni ham qamrab oladi. Ushbu jihati bilan u hozirgacha mavjud bo'lib kelgan global muammolarning eng tajovuzkori, eng buzg'unchi ekanini anglash joiz. Hozirgi paytda dunyo jamoatchiligi tomonidan keskin qoralanayotgan g'oyaviy-mafkuraviy xurujlar, xalqaro terrorchilik, diniy ekstremizm va jaholatparastlik, g'iyohvandlik, odam savdosi ham buzg'unchi g'oyalarga asoslangan. Buzg'unchi g'oyalarni tasniflash or'in olgan yovuz qarashlar turli tarqalish doirasi va ta'sir kuchiga ega. Ayniqsa, dunyoda bo'layotgan turfa voqea-hodisalar, tez o'zgarayotgan bugungi kunda hayot jarayoni ertaga qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligini oldindan tasavvur qilish qiyin. Davlatimiz rahbari qayd etganidek, "Dunyoda turli informatsiya oqimlari, axborot makonlari va mabalar, mafkura poligonlari ko'p. Ulardan qaysisi to'g'ri, qaysisi ishonchli,

sionerlik va prozelitizm harakatlari to-bora kuchayayotganini aytib o'tish joiz. Mazkur harakatlar dunyo miqyosida din va diniy konfessiyalar o'rtasidagi keskinlik va qarama-qarshiliklarni keltirib chiqarishga sabab bo'layotir. Bu esa g'oyaviy-mafkuraviy tahdid sifatida namoyon bo'layotgan missionerlik va prozelitizm to'g'risida jiddiy fikrlashni taqozo etmoqda.

Missionerlik va prozelitizm zamirida o'zga mamlakatlarning davlat suverenitetiga, konstitutsiyaviy tuzumiga nisbatan amalga oshirilayotgan siyosiy bosim va tajovuzlarni g'oyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash yotadi. Boshqacha aytganda, bu ma'naviy-madaniy qadriyatlar hamda diniy vositalar orqali boshqa davlatlarning ichki ishiga aralashuvdir.

Har qanday xalq va millatning birlashuvida milliy g'oya muhim ahamiyat kasb etadi. Bugun yangi hayot qurish, rivojlangan davlatlar qatoriga chiqish yo'lida dadi borayotgan mamlakatimizda ham milliy g'oya masalasi juda muhim ahamiyatga ega.

Milliy g'oya ezgulikka tayanar ekan, buzg'unchi mafkuraga qarshi kurashishda aniq maqsadga qaratilgan targ'ibot ishlarini tashkil etish masalasi dolzarblashib boraveradi.

Mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g'oya asosida kurashda maktabning o'rni alohida. Shu bois, bugun yurtimizda ta'lim-tarbiya sohasida keng ko'lamli islohotlar kechayotgani bejiz emas. "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" g'oyasi asosida O'zbekiston taraqqiyotining yangi davriga qadam qo'yib, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi islohotlar buyuk umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylanib bormoqda.

Ma'rifatparvar jaded bobolarimizning "Najot — ta'limda, najot — tarbiyada, najot — bilimda. Chunki barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi", degan so'zlarida teran ma'no mujassam. Zero, har qanday davlat taraqqiyotining tamol toshi bevosita ta'lim masalalariga qaratilayotgan e'tibor bilan bog'liq.

Tarixan bolaning ta'lim-tarbiyasiga juda nozik va jiddiy masala sifatida alohida e'tibor qaratilgan. Bu orqali yurtning kelajakdagi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va ma'naviy taraqqiyotiga zamin yaratilgan. Prezidentimiz Sharq donishmandlarining "Eng katta boylik bu — aql-zakovat va ilm, eng katta meros bu — yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik bu — bilimsizlikdir!" degan hikmatli so'zlarini keltirib, zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifati va yuksak madaniyat ega bo'lish ulduzsiz hayotiy ehtiyojiga aylanib borayotganini, nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun, avvalo, ilm-ma'rifati, yuksak ma'naviyat kerakligini, ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'l'dan adashish holatlari kuzatilishini ta'kidlaganida yuz karra haq edi.

Mafkuraviy xurujlarga qarshi kurashda mamlakatimizning milliy g'oyasi har birimizga kelajakka ishonch, madad, kuch-g'ayrat, shijoat berib, xalqimiz va millatimizni ulug'vor va bunyodkor ish-larga, Vatani, millat, mustaqillik himoyasi yo'lida birlashishga safarbar etadi.

Davlatimiz rahbari ta'biri bilan aytgan-da, "Biz yaratayotgan yangi O'zbekistonning mafkurasini ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan". Binobarin, o'z milliy g'oyasiga ega davlat mustahkam, qudratli va obod bo'lishini barcha yurt-doshlarimiz teran anglashi lozim.

TRANSPORT INFRATUZILMASI



TIRBANDLIK LAR

poytaxtimiz havosini qay darajada yaxshilaydi?

Boshlanishi 1-betda

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining ma'lum qilishicha, transport vositalari soni kundan-kun ortishi natijasida tashlamalar miqdori 2022-yilda 2021-yildagiga nisbatan 26 ming tonnaga ko'paygan. Bunga foydalaniladigan yonilg'i turining sifati, aholining jamoat transportidan ko'p foydalanmasligi, avtotransport vositalari texnik sozligiga yetarli darajada e'tibor qaratilmasligi kabi omillar asosiy sabablardir.

Avtotransport vositalarining texnik no-sozligi va boshqa salbiy jihatlari ayanchli oqibatlariga ham olib kelyapti. Ma'lumotlarga qaraganda, yo'l harakati tashkil etishda texnik vositalarning sifati pastligi sabab 2022-yilda 9 ming 902 ta yo'l-transport hodisasi sodir bo'lgan hamda ularda 9 ming 606 fuqaro jarohatlangan. 2023-yilning dastlabki 4 oyi davomida esa 2 ming 144 ta yo'l-transport hodisasi oqibatida 499 fuqaro hayotdan ko'z yumgan.

— "Toza havo" oyligining dastlabki bosqichiga doir tadbirlarni YHXB inspektorlari bilan hamkorlikda poytaxtimizdagi yo'l-patrol maskanlari va bevosita avtoparklarda o'tkazdik, — deydi Toshkent shahar ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi bosh mutaxassisi Dilrabo Rahmonova. — Bunga mobil ekologik laboratoriyamizni ham jalb etgan holda, 11 ming 78 ta avtotransport vositasidan atmosfera-ga tashlanayotgan zararli gazlar miqdori tekshirildi. Ularning 408 tasida me'yor buzilishi aniqlandi va aksari avtoparklarning o'zida sozlandi.

Respublika bo'yicha jamlangan ma'lumotlarga ko'ra, oylik davomida 161 ming 537 ta avtotransport vositasi qamrab olingan va shundan 153 ming 761 tasida toksiklik darajasi, 7 ming 776 tasida tutun quyugligi tekshirilgan. Ularning 2,7 foizida ishlatilgan gazlarning ifloslantiruvchi moddalar miqdori o'rnatilgan me'yorlardan yuqori ekanini aniqlangan.

Tadbir davomida ishlatilgan gazlarda ifloslantiruvchi moddalar davlat standartlarining belgilangan normalari ni qo'pol ravishda buzgan 1 ming 549 ta avtotransport haydovchisiga nisbatan yo'l harakati xavfsizligi xizmati xodimlari tomonidan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning tegishli

moddalar bilan 246 million 225 ming so'm jarima qo'llandi hamda 1 ming 525 tasining harakati vaqtincha cheklandi.

Hisob-kitoblarga qaraganda, aholining kundalik harakat ehtiyoji olti million qatnovni talab etadi. Bu ehtiyojning 1,5 millioni avtobus, mikroavtobuslar va metro, qolgan



O'tkazilgan tadbir tufayli yurtimiz havosi bir oz bo'lsa-da musaffolashdi. Lekin transport infratuzilmasini zamonaviy darajaga yetkazmasdan, xizmat sifati tubdan yaxshilamasdan turib asosiy maqsadga erishib bo'lmaydi.

Yo'lovchilarga xizmat sifati qanday yaxshilanadi?

— So'nggi yillarda Toshkent shahri har tomonlama rivojlanayapti, — deydi Transport vazirligi huzuridagi Bosh loyiha ofisi rahbari Murodjon Obidov. — Muqim aholi, vaqtincha yashovchilar, sayyohlar, talabalar soni ham tobora oshib boryapti. Hozirgi kunda poytaxtda 3 million atrofida muqim aholi yashayotgan bo'lsa, ularning 1,3 millioni doimiy ish joyiga ega.

qismi 800 mingta yangil mashina vositasida qoplanayapti. Shu bois, avtobuslar yetishmasligi, kutish vaqti ko'pligi va tirbandlik kabi muammolar yuzaga kelyapti.

Davlatimiz rahbari o'tgan yil 13-dekabrda poytaxtimizdagi 18-avtobus saroyida bo'lib, ahvoni o'zi ko'rgan, yangi avtobuslar olib kelish va yo'lovchilarga qulayliklarni oshirish bo'yicha topshiriqlar bergan edi. Shundan kelib chiqib, joriy yil 16-fevralda Prezidentimizning "Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Unga asosan, aprel-may oylarida Toshkent shahriga 755 ta zamonaviy avtobus olib kelinish, yo'lovchilarga eng ko'p yo'nalishlarga qo'yildi. Natijada avtobuslarning kunlik soni 1 ming 400 taga yetdi, 9 ta qo'shimcha yo'nalish ochildi. Tabiiyki, yo'lovchi tashish quvvati oshib, avtobuslar qatnovining oraliq vaqti qisqardi. Ya'ni kunlarda yana 245 ta avtobus keltirildi.

Brutto shartnomasi tizimi nima beradi?

Mamlakatimizda avtomobillashganlik darajasi 1000 kishiga 86 ta, Toshkent shahrida esa 240 taga to'g'ri kelishini hisobga olsak, hali yangi transportda harakatlanayotgan aholining asosiy avtotransportlaridan iborat katta tirbandlik hosil bo'ladi.

tumanida yashovchi aholi, qo'shni qozog'istonlik qardoshlar Toshkent shahriga asosan 4R253 avtomobil yo'li orqali borib keladi. Transport sonining ortishi, ayniqsa, ushbu hududdan o'tuvchi temir yo'l va avtomobil yo'li kesishmasining vaqti-vaqti bilan yopilish turishi va uzundan-uzoq tirbandliklar kelib chiqishi sababli poytaxtimiz hamda unga tutash manzilga qatnov tobora qiyinlashib bormoqda.

Buning birinchi sababi — poyezdlarning kundalik harakati, teplovozlarning manyovrlari tufayli "Nazarbek" temir yo'l stansiyasi hududidan o'tgan avtomobil yo'li muayyan muddatga yopib qo'yilishidir. Bunday holatlar ertalab va kechqurunga to'g'ri kelishi sababli Toshkent shahriga borayotgan va undan qaytayotgan aholi avtotransportlaridan iborat katta tirbandlik hosil bo'ladi.

Ushbu hududda yashovchi yurtdoshlarimizdan tushgan ko'plab murojaatlar inobatga olingan holda, Prezidentimizning 2020-yil 28-dekabrda "2021–2023-yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish

emasligini ko'rish mumkin. Lekin shunday bir paytda poytaxt aholisi yiliga 100 ming nafarga ko'payyapti, transport vositalari soni esa 2022-yilda 76 mingtaga o'sgan. Bu tirbandlik kuzatilayotgan asosiy transport arteriyalariga yuklama tobora ortib borishini, ayniqsa, o'quv yili davrida yanada oshishini namoyon etadi.

— Prezidentimizning joriy yil 2-fevraldagi "Toshkent shahar jamoat transporti tizimini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida tizim infratuzilmasini rivojlantirish, metropoliten tarmog'ini

BARTARAF ETILISHI



asosiysi, ushbu yo'lda harakatlanayotgan transport oqimi kamaytirilmagan holda qayd etilgan samaralar erishish mumkin.

Prezidentimiz shu yil 26-may kuni poytaxtda bu borada amalga oshirilayotgan ishlar, Toshkent shahringa yangilangan transport bosh rejasini besovita tanishdi. Qayd etilganidek, reja shaharning kengayishi va yo'lovchilarga oqimi tahliili asosida 167 ta yo'nalishdan iborat tarzda ishlab chiqilgan. Shundan 17 tasida kunlik reja belgilash tartibi bekor qilinib, bosib o'tilgan masofaga qarab hisob-kitob tizimiga o'tilgan. Iyun-iyul oylarida qolgan 150 ta yo'nalish ham tender savdolari orqali shunday tizimga o'tkazilishi qatnovlar muntazamligini ta'minlaydi, o'z navbatida, xizmat sifati oshadi.

Davlatimiz rahbari yo'l-kira to'lovi tizimini tartibga solish, harakat nazoratini raqamlashtirish, bekatlarda sharoitlarni yaxshilash bo'yicha ko'rsatmalar berib, jumladan, bunday dedi: "Yangi avtobuslar, albatta, xalqimizga qo'shimcha sharoit yaratadi. Endigi vazifa yo'llarda tirbandlikni kamaytirib, avtobuslarning erkin harakatini ta'minlash. Pirovardi maqsad — Toshkentda jamoat transporti qatnovini 2 million yo'lovchiga yetkazish".

Mutaxassislar fikricha, aslida, havo sifatini yaxshilash va tirbandlikning oldini olishda bozor mantig'i asosida ish tushirishning samarasi katta. Buni jahon tajribasi ham tasdiqlaydi. Masalan, London shahrida tirbandlik avj olgan soatlarda mashina haydash narxi oshirib qo'yildi. 2003-yil soat 07:00 dan 18:00 oralg'ida London markazidagi yigirma bir kvadrat kilometrli hududga kiradigan haydovchilar uchun 5 funt sterling (8 dollar) miqdorida to'lov belgilandi. Yillar mobaynida bu miqdor oshib borib, 2020-yilda 15 funt sterlingga yetdi. O'z navbatida, to'lov evaziga kiriladigan hudud kengaytirildi. Yetti yuzga yaqin joyda o'rnatilgan videokameralar mashinalar

Brutto shartnomasini yo'lga qo'yish jarayonida aholi uchun bir soat ichida imtiyozli to'lov asosida manzilga yetib boruncha (1 soat ichida) bir nechta transportdan foydalanish imkoniyatini beruvchi yangi tarif rejalarini, bekatlar yaqinida yangil transport vositalari yo'lovchilarni tushirish-chiqarish joylarini barpo etish, yo'l bo'yidagi tartibsiz to'xtash hududlarini tartibga solish kabi ishlar ham amalga oshiriladi. Masalan, bitta ko'chani 6 kilometr masofasida yuqoridagi kompleks tadbirlarni joriy etish natijasida jamoat transportining tashuv quvvati 2,5 barobar ortadi, chorahalar muvofiqlashtirilgan tizimining yo'lga qo'yilishi orqali esa kuniga 19 ming litrgacha yonilg'i tejallishiga va katta miqdordagi zararli gazning havoga chiqarilishi kamayishiga erishiladi. Eng

raqamlarini skanerlaydi va ularni to'lov qilgan haydovchilarga to'xtatib bilan solishtiradi. London markazida to'lov qilmagan haydovchilarga 80 funt sterling (130 dollar) miqdorida jarima solinadi.

Jahonga mashhur iqtisodchi Charlz Uilan ham bu reja xususidagi fikrlarini bildirgan ekan, yuqori narxlar talabni pasaytirishga urg'u beradi. Qatnov narxi oshishi ba'zi haydovchilarni kamroq mashinani haydashga undaydi. Arzonroq bo'lgan jamoat transportidan foydalanishga ehtiyoj oshadi. Bundan tashqari, yangil mashinalarning kamayishi avtobuslarning tez harakatlanishiga yo'l ochadi.

London'da dastur ishga tushgach, bir oydan keyin transport harakati 20 foiz kamaygan. Tirbandlik hududi sanalgan yo'llarda

o'rtaicha tezlik ikki barobar oshgan, avtobuslarning kechikishi ikki barobar kamayib, undan foydalanuvchilar soni 14 foiz ko'paygan. Tabiiyki, London havosi ham shunga yarasha toza bo'ldi.

Shu jihatdan qaraganda, Toshkent shahrida jamoat transportiga ustuvor ahamiyat qaratilayotgani, ayniqsa, ekologik toza bo'lgan metro qurilishini kengaytirishga ko'rsatilayotgan alohida e'tibor diqqatga molik. 2017-yilda qurilishi boshlangan yirik loyiha — yangi yer usti halqa metro yo'nalishining barpo etilishi va bugungi kunda yo'lovchilarga xizmat ko'rsatayotgani poytaxt aholisi hamda mehmonlari uchun katta qulaylik tug'diryapti.

Mutaxassislar fikricha, ushbu loyihaning Sergeli hamda Do'stlik-2 — Qo'ylig' yo'nalishi foydalanishga topshirilishi natijasida unga tutash ko'chalarda transport tirbandligi 10-15 foiz kamaygan. 2-bosqich ishlari yakuniga yetgach, u bir kunda 40 mingga yaqin yo'lovchiga xizmat ko'rsatish quvvatiga ega bo'ladi. Buning evaziga ushbu yo'nalishlarda shaxsiy transportlarga ehtiyoj kamayib, tirbandlik bartaraf etiladi. Xususan, Qo'ylig' — Sergeli yo'nalishida harakatlanadigan kunlik avtomobillar soni 32 mingtagacha qisqarib, transport oqimi 12 foiz kamayishi ko'zda tutilmoqda.

Bundan tashqari, poytaxt ko'chalarida xizmat ko'rsatayotgan mingta avtobusning aksariyati ekologik toza — elektr quvvati yordamida yuradi.

Shaharlarimiz transport infratuzilmasi zamonaviy talablarga javob berishi uchun hali ko'p ish qilinishi, jamoat transportiga katta e'tibor qaratilishi kerak. Jamoat transporti aholi uchun qulay va aniq ishlashi, shaharning istalgan hududidan ikkinchi hududga piyoda yoxud velosipedda xavfsiz bora olish uchun sharoitlar yaratilgan bo'lishi zarur. To'g'ri, ayrim shaharlarimizda keyingi paytda bu borada ancha-muncha ishlar qilinayapti. Lekin mamlakat miqyosida olinganda bunday hududlar hali unchalik ko'p emas.

Yana bir tomoni, yaxshi transport infratuzilmasi har birimizning ishga, uyga boradigan yo'limiz va vaqtimizni qisqartiradi, demakki, boshqa ishlar uchun ko'proq vaqt sarflaymiz. Hayotimiz qulayligi va sog'lom turmush kechirishimiz nainki avtotransport infratuzilmasi, boshqa hayotiy muhim jihatlari bilan ham chambarchas bog'liq. Nazarimizda, bu boradagi ishlarni kundalik ko'nikmalarimizni o'zgartirishdan boshlasak, ma'qul bo'ladi. Aytaylik, har birimiz haftasiga bir kun mashinamizni "qantarib" qo'yishga o'tsak, yashash joyimiz havosi va sog'lig'imiz yaxshilanishiga hissa qo'shgan bo'lami.

Bizga bu borada chor-atrofimizda ibrat bo'ladigan voqealar ko'p. Ana shulardan biriga Buxoro davlat universiteti faoliyati misolida guvoh bo'lish mumkin. Oliy o'quv dargohi o'qituvchilari va talabalar tomonidan har juma kuni tashkil etilayotgan velomarafon va piyoda yurish aksiyalari hamjihatlik, birdamlik, sog'liq yo'lida qilinayotgan ezu ish sifatida ishtirokchilar safini kengaytirib bormoqda.

Abduraf QORJOV, iqtisodiy sharhlovchi

BUNYODKORLIK MANZILLARI

MURAKKAB INSHOOTNING BEMINNAT XIZMATI

Ayni paytda uch million kishi istiqomat qilayotgan poytaxtimizda aholi soni har yili 100 ming nafarga ortib bormoqda. Toshkentga bir kunda 1,4 million kishi kelib-ketadi. Shunga mos ravishda ular foydalanadigan avtomobillar, xizmat ko'rsatayotgan transportlar soni ham ko'paymoqda.

Shu bois, bugungi kunda nainki poytaxtimizda, balki unga tutash hududlarda yo'l-transport inshootlarini qurish dolzarb vazifaga aylangan. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad aholining uzog'ini yaqin qilish hamda tirbandlikning oldini olishdir. Bu ishlarga "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati tasarrufidagi "Ko'prikkurilish trest" unitar korxonasi jamoasi ham munosib hissa qo'shmoqda. Xususan, trestning "13-ko'prikkurilish otryadi" jamoasi tomonidan Zangiota tumanidagi Nazarbek shaharчасida hududidan o'tgan temir yo'l va avtomobil yo'llari kesishmasida barpo etilayotgan zamonaviy yo'l o'tkazgich foydalanishga topshirilgach, minglab yurtdoshlarimizga katta qulaylik yaratiladi, ularning qimmatli vaqti tejalladi. Ushbu ko'chada transport vositalarining o'tkazuvchanligi ham keskin oshadi.

So'nggi yillarda Toshkent viloyatining Zangiota tumanidagi Nazarbek shaharчасida ham aholi soni sezilarli darajada ortdi. Bugungi kunda uning hududidagi 13 mahallada 33 mingdan ziyod aholi istiqomat qiladi. Shaharчада va Zangiota



infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-apreldagi farmoyishiga asosan, "4R253" Toshkent shahri — Turkiston sh/x — Qozog'iston Respublikasi chegarasi" avtomobil yo'lining 3 kilometrtdagi temir yo'l ustidan yo'l o'tkazgich qurish" loyihasi ishlab chiqildi. Unga ko'ra, "Umumiy

foydalanishdagi avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruksiya qilish direksiyasi" davlat unitar korxonasi buyurtmachi sifatida belgilandi. Loyiha esa "Yo'l-loyiha byurosi" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan tayyorlandi. Bosh pudratchi etib "Ko'prikkurilish trest" unitar korxonasi tarkibidagi "13-ko'prikkurilish" otryadi tanlandi.


lovchi nasos stansiyasi qurildi. Yomg'ir suvi yo'l ostiga o'rnatilgan 28 tonnalik maxsus zaxirada yig'iladi va ular nasoslar yordamida chiqarib tashlanadi.

To'g'ri, aholi yashash joylari va tadbirkorlik subyektlari binolari, qurilish hududidan o'tgan kommunikatsiya tarmoqlarini ko'chirish ancha vaqt talab qildi. Bu masalalar Toshkent viloyati hokimligining yaqindan ko'rsatgan amaliy yordami va geodeziya mutaxassislari bilan hamkorlikda hal etildi.

Loyiha doirasida obyektga jami 7,6 ming kubometr beton, 104 ming kubometr tuproq va 3,4 ming tonna asfalt yetqizish ishlari olib borildi. Avtomobil va temir yo'l o'tkazgichlarida 42 ta temir-beton oraliq qurilma, yo'l o'tkazgichda 521 ta tirgak devor montaj qilindi, 90 ta yoritish ustini hamda 648 metr himoya to'siqlari o'rnatildi.

Endilikda inshootni qurish davrida mahalliy aholining aylanma yo'llar orqali yurishi, vaqt va mablag' yo'qotishlariga sabab bo'lgan qiyinchiliklar ham ortda qolyapti. Uning foydalanishga topshirilishi mahalliy aholi va ushbu yo'ldan o'tib qaytayotganlarning qimmatli vaqtni tejash, avtomobillar tirbandligining oldini olish barobarida, atrof-muhit ekologiyasi yaxshilanishiga ham xizmat qiladi. Hisob-kitoblarga qaraganda, bir kecha-kunduzda o'rtaicha 10 mingta avtotransport vositasining uzluksiz qatnovi ta'minlanadi.

Rustam HAYDAROV, jurnalist



G'olib ABDUSALOMOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

QATIQ SOLINGAN KOSANI TESKARI TUTSA HAM TO'KILMAYDI. QANDAY QILIB?

Boshlanishi 1-betda

Viloyatga birlashtirilgan Samarqand iqtisodiyot va servis instituti bilan hamkorlikda Xatirchi, Nurota va Qiziltepa tumanlarining turistik salohiyatini oshirish bo'yicha 2023-yilda hamkorlikdagi rejalar ishlab chiqilib, bugungi kunda hayotga tatbiq etilmoqda. Jarayonda institut ilmiy xodimlari hududning turizm obyektlari tarixini o'rganib, mavjud kontentni boyitish maqsadida ilmiy xulosalar tayyorlamoqda. Buning natijasida turizmga ixtisoslashgan tuman va mahallalar tarixi, yodgorliklari va kontenti yaratiladi hamda ular asosida kamida 12 ta tilda turizm paketlari ishlab chiqiladi. Shuningdek, xorijiy tillar yo'nalishtirishda o'qiyotgan talabalarning kamida 2 oylik amaliyoti ushbu tumanlarda tashkil etiladi va turizm xizmat ko'rsatish infratuzilmasi xodimlarining malakasi oshiriladi, malakali gid-ekskursovodlar tayyorlash yo'lga qo'yiladi.

— Viloyatda turizm sohasini yanada rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud, — deydi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori Dilbar Aslanova. — Ilmiy o'rganishlar xulosalari asosida turizm obyektlarining jozibadorligini bundan-da oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi. O'ylaymanki, bu hamkorligimiz o'zining yuksak samarasini berib, viloyatga keluvchi sayyohlar oqimi yanada ko'payadi.

Qiziltepa tumanining turizm salohiyati va bu boradagi imkoniyatlari alohida e'tirofga loyiq. Bir tomondan, Malikcho'l sahrasiga, ikkinchi tomondan Buxoro viloyatiga tutashib va zamin azaldan mehnatkash xalqi, ishbilarmon insonlari bilan viloyatda o'z o'rniga ega

bo'lib kelgan. Birgina Zarmitan qatig'ining dovrug'ini eshitmagan kishi bo'lmas kerak. U o'zining shifobaxshligi va tayyorlanish uslubi bilan betakror. Qiziqarli jihati, bu yerda tayyorlanadigan qatig' solingan kosani teskari tutsa ham to'kilmaydi. Tumanga kelgan inson borki, bu qatig'dan totmay ortga qaytmaydi. Bu, o'z navbatida, hududda gastronomik turizm rivojida ham muhim ahamiyatga ega. Hozirda M-37 magistral yo'lida tashkil qilingan sotuv punktida Zarmitan qatig'idan tatib ko'rgan sayyohlarda uning tayyorlanish jarayonini ko'rish istagi ham paydo bo'lishi tabiiy hol.

Tumanning turizm salohiyati haqida gap ketganda, To'dako'l suv havzasi alohida tilga olinadi. Bu yerda barcha qulayliklarga ega dam olish maskanlari tashkil etilib, plyaj turizmi yo'lga qo'yilgan. Sohil bo'yida barpo etilgan plyaj dam olish sog'lomlashtirish maskani va akvaparkning umumiy qiymati 6 million dollar. Ochiq osmon ostida o'tkaziladigan qiziqarli konsert va shou dasturlar mehmonlarning maroqli dam olishi uchun xizmat qiladi.

O'tgan yili sohil atrofida bir vaqtning o'zida 2500 sayyohga xizmat ko'rsatadigan dam olish maskani tashkil etilgan edi. Turizm sohasida berilayotgan imtiyozlar hisobiga bu yerda yangi plyaj, turizm zonalarini, 2 ta dam olish maskani, 10 ta oilaviy mehmon uyi hamda 15 turdagi turizm xizmatlari tashkil etildi. Xorijiy sayyohlar oqimi 2022-yilda 2 barobar oshdi, mahalliy va chet ellik 42 ming sayyoh tashrif kuzatildi.

Bundan tashqari, To'dako'l baliqlarini ovlash va undan mazali taomlar tayyorlash jarayoni, taomlarning o'ziga xos

mazasi sayyohlar uchun qiziqarli jihatlaridan hisoblanadi.

— Tumanimizda turizm sohasida imkoniyatlar keng va ayni vaqtda ulardan samarali foydalanish bo'yicha tizimli ishlar olib bormoqdamiz, — deydi Qiziltepa tumani hokimi o'rinbosari Murodjon G'iyosov. — Turizm yo'nalishtirish har biri bo'yicha rivojlantirish rejasi ishlab

dan betakrori hisoblanadi. Uning balandligi 27,5 metr. Minora tepasiga tut yog'ochidan ishlangan 56 ta aylanma ichki zinalardan chiqish mumkin. Pastki qismning aylanasini 8 metr bo'lib, pishiq g'isht va ganch aralashmasidan ishlangan. Ba'zi taxminlarga ko'ra, minoraning yoshi yanada qadimiyroq bo'lishi kerak. Obida oldida katta yo'l bo'lib, ma-

bandligi ta'minlandi. Shuningdek, 11 ta umumiy ovqatlanish shoxobchasi faoliyati yo'lga qo'yilib, mahalliy va xorijiy sayyohlarga xizmat ko'rsatuvchi 63 ta savdo punkti tashkil etildi. Qo'shimcha xizmatlar sonini oshirish maqsadida esa sayyohlar uchun qadimiy uy va qadimiy buyumlar saqlanuvchi 2 ta uymuzeyi faoliyati yo'lga qo'yildi. Turizm mahallalaridagi 12 ta obyekt turizm yo'nalishtirishga kiritildi. Olis hududlarda turizmni rivojlantirish maqsadida 3 ta ov obyektida hamda 20 ta plyaj turizmi hududlari tashkil etildi. 8 ta ziyorat turizmi obyektida obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi.

2023-yil yakuniga qadar Qiziltepa tumaniga 6 ming xorijlik va 73 ming mahalliy sayyohlarni jalb qilish rejalashtirilgan. Bu borada viloyatdan tashqari qo'shni Samarqand va Buxoro viloyatlaridagi turkompaniyalar bilan sayyohlarni ko'proq jalb qilish bo'yicha hamkorlik yo'lga qo'yildi.

Viloyatning ziyorat turizmi rivojida Nurota tumanidagi "Chashma" ziyoratgohi alohida e'tirofga molik. Nur chashmasi tabiatning noyob tuhfasini bo'lib, uning qachon va qanday paydo bo'lgani noma'lum. Ma'lumotlarga ko'ra, bu mo'jiza murakkab tabiiy jarayonlar natijasida paydo bo'lgan. Arxeolog olimlar o'sha hududdagi qal'a tavaragida uchratgan topilmalar bu manzilda yuqori paleolit davrida ham odamlar yashaganidan darak beradi.

Mutaxassislar fikricha, chashma suvi tog' toshlari orasidan sizib o'tib, turli kimyoviy birikmalarni, tog' jinslaridagi har xil elementlarni eritib, o'zi bilan birga olib keladi. Yuqori minerallasgan suv yer yuziga chashma bo'lib otilib chiqadi. Dengiz sathidan 524 metr balandlikda joylashgan chashma suvi xushmata, hidsiz, rangsiz, yumshoq, shirin bo'lib, tarkibida 20 xil mikroelement borligi aniqlangan. Harorati esa qishin-yozin bir xil turadi. Chashmadagi baliqlar tabiatning betakror mo'jizasi bo'lib, mahalliy aholi ham, sayohatchilar ham ularga umuman oqor yetkazmaydi.

Ziyoratgohda joylashgan "Chilustun" jome masjidi tarixi X asrga borib taqaladi. Uning o'ziga xos jihatlardan biri shundan iboratki, masjidga qadimda ishlatilgan quyosh soatining o'rnini bu vaqtdagi aks sado beruvchi ovoz kuchaytirgichlar keyingi ta'mirlash jarayonida saqlab qolingan. Masjid 20x30 o'lchamli bo'lib, Nurota yog'och o'yamakligi uslublari qo'llanilgan.



chiqilgan. Ziyorat va ekoturizm bo'yicha amaliy ishlar boshlab yuborilgan. Qolaversa, M-37 yo'lining 22 kilometr qismi tumanimiz hududidan o'tgani ham turizmni yanada rivojlantirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar beradi.

Tumanda ziyorat turizmi borasida ham o'ziga xos maskanlar mavjud bo'lib, XVI asrga tegishli Toshmasjid hamda Boyazid Bastomiy ziyoratgohlari yil davomida sayyohlar bilan gavjum. Bugungi kunda nafaqat mahalliy, shu bilan birga, xorijiy sayyohlarni ham o'ziga jalb etib kelayotgan Toshmasjid me'moriy yodgorligi va minorasi 1583-1585-yillarda Abdullaxon davrida barpo etilgan. U o'sha davrlarda Buxoroda katta nufuzga ega bo'lgan juyboriylar vakili bo'lmish Xo'ja Sayid Juyboriylar homiyligida tiklangan. Umumiy hajmi 27x24 metrdan iborat bo'lib, balandligi 18 metrga yetadigan imorat Markaziy Osiyoda pishiq g'ishtdan ishlangan ustun-gumbazli mahobatli inshootlar rivojining cho'qqisi darajasiga yetgan, deya e'tirof etilgan. Toshmasjid hovlisidagi Vang'ozi minorasi ham shunday uslubdagi inshootlar-

haliy aholi uni "Amir yo'li" deb atagan. Chunki qadimda Buxoro amirlari Karmanaga aynan shu yerdan o'tgani manbalarda keltiriladi va shu jihatlari bilan ham bugun mazkur ziyoratgoh ko'plab sayyohlarni o'ziga jalb etib keladi.

Ayni vaqtda Qiziltepa tumanida ziyorat turizmini yanada rivojlantirish uchun 5 ta mahalladagi 16 ta madaniy meros obyekti to'liq xatlovdan o'tkazildi va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. Turizm turlarini rivojlantirish maqsadida hududlarda tog', ko'l, buloq, cho'ldan iborat 8 ta joy ro'yxati shakllantirilib, ushbu hududlarda 5 ta ekoturizm subyekti faoliyati yo'lga qo'yildi.

Bugungi kunda tuman mahallalarida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan uy ustaxonalari soni 12 tani tashkil etadi. Shu kunga qadar soliq imtiyozlari joriy qilingan mahallalarda

1 ta oilaviy mehmon uyi, 3 ta dam olish maskani, 1 ta xostel, 1 ta o'tovli lager faoliyati yo'lga qo'yilgan. Sayyohlar uchun milliy taomlar tayyorlovchi 2 ta gastronomik xonadon faoliyati tashkil etilishi natijasida esa xotin-qizlar



Ekologiya

"YOPIQ SIKLLI IQTISODIYOT"NING AFZALLIKLARI NIMADA?

Hulkar TUROBOVA,
Buxoro davlat universiteti dotsenti

Mamlakatimizda "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" qabul qilingan. Unda bioiqtisodiyotning asosiy tarmoqlari — qishloq, suv va o'rmon xo'jaliklarida samaradorlikni oshirish hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni qayta ishlashni takomillashtirish kabi yo'nalishtirish chora-tadbirlar amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Prezidentimiz tabiatimizni asrab-avaylash, suv, havo va atrof-muhitni toza tutish har bir mahalla aholisining madaniyati va amaliy harakatiga aylaniishi kerakligini alohida ta'kidlagan edi.

Bu borada mavjud vaziyatni ijobiy tomonga o'zgartirish uchun ekologiya va atrof-muhitni asrash bo'yicha sa'y-harakatlar, xususan, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasidagi ishlar kuchaytirildi.

Fikrimizcha, ekologiya va atrof-muhitni asrash chiqindilarni kamaytirish va ularni qayta ishlash tizimini samarali yo'lga qo'yishga ham ko'p jihatdan bog'liq. So'nggi yillarda dunyodagi ko'plab mamlakatlar yopiq siklliy iqtisodiyot ekologik muammolarni hal qilishning asosiy chorasini deb hisoblamogda.

Chunki u atrof-muhit ifloslanishining oldini olish bilan birga, resurslarni tejash,

biologik xilma-xillikni asrash, ishlab chiqarish va iste'mol qilishning barqaror modellarini yaratish, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish, ushbu yo'nalishtirishda innovatsiyalarni tatbiq etish, biznesni rivojlantirish va qo'shimcha ish o'rnlari yaratish imkonini beradi.

Sababi, bugun butun dunyoda chiqindilarning hosil bo'lish sur'ati yil sayin oshib bormoqda. 2020-yilda dunyoda jami 2,24 milliard tonna qattiq chiqindi hosil bo'lgan. Uning atigi 17 foizi qayta ishlangan. 2050-yilga borib, aholining tez sur'at bilan o'sishi va urbanizatsiya tufayli yillik chiqindilarning yuvudga kelishi 2020-yildagiga qaraganda 73 foizga oshib, 3,88 milliard tonnaga yetishi kutilmoqda.

Hisob-kitoblarga ko'ra, mamlakatimizda ham qattiq maishiy chiqindilar hosil bo'lishining yillik hajmi 14-14,5 million

tonnani tashkil etishi bashorat qilinmoqda. Aholi sonining o'rtacha 1,5 foizga ko'payishi hisobga olinganda esa ushbu ko'rsatkich 2028-yilga borib 16-16,7 million tonnaga yetishi mumkin ekan. Hozirgi kunda ushbu chiqindilarning atigi 14 foizi qayta ishlanmoqda. Shu bois, dunyodagi qator mamlakatlar qattiq maishiy chiqindilarning hosil bo'lishini kamaytirish va mahsulotlardan takroran foydalanish yoki ularni qayta ishlash uchun zarur chora-tadbirlar ko'rmoqda.

Niderlandiya 2030-yilga borib, resurslardan foydalanishni 50 foizga kamaytirish va 2050-yilgacha chiqindilarsiz yopiq siklliy iqtisodiyotga to'liq o'tishni maqsad qilgan. Fransiyada esa 100 foiz yopiq siklliy iqtisodiyotga o'tishga oid 50 ta chora-tadbirni o'z ichiga olgan yopiq siklliy iqtisodiyotga o'tish bo'yicha "yo'l xaritasi" ishlab chiqilgan.

Chiqindisiz iqtisodiyot

"Yopiq siklliy iqtisodiyot" — bu maqsadga ko'ra tiklanadigan yoki qayta tiklanadigan sanoat tizimidir. U "hayotning tugashi" konsepsiyasini qayta tiklash bilan almashtradi, qayta tiklanadigan energiyadan foydalanishga o'tadi va materiallar, mahsulotlar, tizimlarning yaratilishi orqali chiqindilarni yo'q qilishga qaratilgan iqtisodiyotdir.

Oddiy so'z bilan aytganda, sirkulyar iqtisodiyot deganda, chiqindisiz ishlab chiqarishni tashkil etish va chiqindilarni qayta ishlashni tushunishimiz mumkin. Bunda chiqindisiz texnologiyalardan foydalaniladi. Chiqindisiz texnologiya inson ehtiyojlari doirasida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, energiya va atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlash uchun bilimlar, usullar va vositalarni amaliy qo'llashdir.

Chiqindisiz texnologiya ideal ishlab chiqarish modeli sifatida tushuniladi, uni ko'p hollarda to'liq amalga oshirish mumkin emas, lekin texnologik taraqqiyotning rivojlanishi bilan u idealga tobora yaqinlashmoqda.

Xorij tajribasi

Yaponiyada "mottainai" harakati mavjud bo'lib, tarjimasini "uni to'liq ishlatsamuningizcha tashlamang" degan ma'noni anglatadi. Bir marta ishlatiladigan idish va paketlardan voz kechish bo'yicha targ'ibot allaqachon hukumat darajasiga ko'tarilgan. EcoNet internet nashriyot yozishicha, hukumat bir martalik mahsulotlardan butunlay voz kechish g'oyasini Kamikatsu shahrida amalga o'rnatishni yo'lga qo'ydi. 2003-yilda munitsipalitet bir martalik tovarlar sonini kamaytirishga qaratilgan maxsus tarkibiy islohotni faol



Mamlakatimizda chiqindisiz ishlab chiqarishni tashkil etish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirishda quyidagilarga katta e'tibor berish kerak.

Birinchidan, atrof-muhit ifloslanishining katta xismi sanoat texnologiyasining yetarli darajada rivojlanmagan natijasidir. Demak, sanoat ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish zarur.

Ikkinchidan, foydalanilmagan ishlab chiqarish chiqindilari, bu — tabiiy resurslarning yo'qolishini anglatadi. Chiqindilarni qayta ishlashni va resurslardan uzoq foydalanishni, ijara, lizingga berish, foydalanilmayotgan ashyolarni boshqalarga foydalanishga berish tizimini yaxshi yo'lga qo'yish zarur.

Uchinchidan, tabiiy materiallarga bo'lgan ehtiyojning ortishi bilan ikkilamchi xomashyoni olish va ulardan foydalanish ijtimoiy mehnat unumdorligini oshirishning muhim manbai bo'lishi mumkin.

Xulosa o'rinda shuni aytish kerakki, energiya va xomashyodan samarali foydalanish imkonini beruvchi uzunsiz jarayonlardan foydalanish, uskunaning birlik quvvatini oshirish, ishlab chiqarish jarayonining muntazamligi, ularni avtomatlashtirish, optimallashtirish, kadrlar tayyorlash tizimini moliyalashtirishni yaxshilash, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini samarali tashkil etish orqali ijobiy natijalarga erishish mumkin bo'ladi.

Nuroniylar SHUKRONASI

Ular ko'rgan kunlarni aytsang, ado bo'lmaydi

Ota, duo qiling O'zbekistonni, Bardoshni siz bosgan izdan o'rgandik. Ona, duo qiling O'zbekistonni, Vatanni sevishni sizdan o'rgandik.

Davlatimiz rahbarining joriy yil 11-martdagi "Keksa avlod vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda ularning ijtimoiy faolligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori yurt nuroniylariga ko'rsatilayotgan e'zoz-u ehtiromning yuksak namunasi bo'ldi.



Zulfiya MO'MINOVA, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, shoira

Keksa odam ko'p narsa yemaydi, ammo o'sha kamroq luqma ham bozorda pulsiz berilmaydi. Tanish do'konlardan qarzdorlar ham asosan ishlamaydigan nuroniylar edi.

— Goho may oyida olishimiz lozim bo'lgan nafaqa pulini avgust oyida olar edik. Biz-ku, farzandlarimiz, nabiralarimizga suyanardik, qismat taqozosi bilan yolg'iz qolganlarga juda og'ir bo'lgan, — deya eslaydi Samarqand viloyati Narpay tumanida yashovchi 88 yoshli Qimmat momo. — Biz sabr bilan qani edi shunday kunlar kelsa, ki, nafaqalarimiz oshsa, pensiyalarimizni o'z vaqtida, uyimizga keltirib berishsa, deb orzu qilardik. Prezidentimizga rahmat, uning qarori bilan pensiyalarimiz har yili oshmoqda, pullarimiz o'z vaqtdan bir lahza ham kechikmay, plastik kartalarimizga tushmoqda. Naqd pulda olishni xohlovchilarning pensiyasi esa 100 foiz qo'llariga tegmoqda. Nogironligi tufayli yura olmaydigan nuroniylarning xonadonlariga pochta xizmatchilari pullarni eltib bermoqda.

O'zbekiston nuroniylari — ma'naviyatimizning baquvvat ildizlari, mehr qo'rg'onlari, Vatanga muhabbatning oltin kitoblari. O'zbekiston nuroniylari — Ikkinchi jahon urushida ishtirok etgan, bugungi tinchlikning qadri yoshlarga tushuntirayotgan uyg'oq daryolar. O'zbekiston nuroniylari — ilm-fanimiz dovrig'ini olamga yoygan ustozlar, fan doktorlari, akademiklar va kamtarin donishmandlar.

O'zbekiston nuroniylari — ulug' yoshda ham bog'u rog'laridan, qir-u adirlaridan, bepoyon dalalaridan xabardor bo'lib turgan ulkan tajriba maktablari, bobodehqonlar, usta bog'bonlar, mahallalarimiz oqsoqollari, hoji otalar, hoji onalarimiz.

Ular ko'rgan kunlarni aytib ado etib bo'ladimi? Ularning dard-u hasratlari bitilgan dostonlarni kuylagan baxshilarning dardli ovozlari yuraklardan sug'urib tashlab bo'ladimi? Yo'q, aslo! Bugun O'zbekistonda kekse avlod vakillari uchun ko'rsatilayotgan g'amxo'rliklarni qayd etib, ularning shukronasini eshitib, har lahza to'liqinlamay ilojimiz yo'q.

Birgina o'tgan yili 965 nuroniy bepul tibbiy ko'rikdan o'tkazildi, 23 mingi dori-darmon va oziq-ovqat bilan ta'minlandi, nuroniylar sanatoriylarda sog'lomlashtirildi, 118 ming nuroniyga boshqa turdagi moddiy yordam ko'rsatildi, 221 nafar ikkinchi jahon urushi qatnashchisi va yolg'iz keksaning uy-joyi ta'mirlab berildi, 1 milliondan ortiq nuroniy uchun mamlakatimiz bo'ylab sayohatlar tashkil qilindi.

Inson xotirasida yaxshi kunlar ko'proq saqlansa-da, baribir armonli o'tmishni ham yurakdan uzib tashlab bo'lmagan ekan. Ha, o'sha kunlarni ham yodimizdan chiqarmasligimiz, bugun bilan taqqoslashimiz, shukrona qilishimiz kerak.

U zamonlar katta shaharlari-ulis qishloqlarda pochta idoralari oldida to'p-to'p bo'lib nafaqa pullarini olish uchun navbatda turgan nuroniylarni ko'rib o'ksimagan dil bormikan? Yana, keladigan pul barchaga yetmasdi. Aslida, pul hamma keksalarga zarur.

Kimningdir dori-darmoni tugagan, o'sha dorilarsiz hayoti qil ustida. Kimdir ustiga kim yil olishi kerak, busiz ham sal sovuqni his etadigan nimjon tana yaproqdek titrab turibdi. Kimdir kommunal to'lovlardan qarzdor, oy oxirlashi bilan to'lamasang, hisoblagich apparat nafaqa kechikayotganini tushunmaydi. Qarz yiriklashgan sayin og'ir yuk bosib kelaveradi. Ado bo'lgan asab battar chatnab, yuraklarda og'riq ortib, qon bosimi oshib ketadi, uyqu qoqib, tunlari bilan yurib chiqqanlar qancha? Yashirib nima qilamiz, kimningdir uyida oziq-ovqati qolmagan bo'lardi.



Ishlash qobiliyati bor, katta tajribaga ega ustozlar, mahoratlil shogirdlar tayyorlayotgan murabbiylarning pensiyalari to'liq berilib, ishlashga ruxsat etilgani nuroniylarning umriga umr qo'shdi.

Ulug' yoshda ushlangan orzu

— Men pensiya pulimdan o'qishlarni yaxshi o'zlashtirayotgan 16 nevaramga mukofot jamg'armasi tashkil qilganman. Ularning 10 tasi hozir har oyda 400 ming so'mlik mukofotga sazovor bo'lmoqda, kelgusi o'quv yilida a'lochi nevaralarim ko'payishini kutayman, — deydi Navoiy shahrida yashovchi onaxon Rohat G'iyosova.

— O'zim yashaydigan Mang'it shahrida "Barkamol avlod" bolalar maktabida direktor lavozimida ishlayman. O'quvchilarga har oyda yangi nashr etilgan adabiyotlardan o'z hisobimdan sovg'a qilaman, — deydi Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Xonimjon Rajabova. — O'n besh yil "Amudaryo haqiqati" gazetasida muxbir, bo'lim muharriri va bosh muharrir, o'n sakkiz yil Amudaryo tumani



Rashid GALIYEV olgan suratlar.

hokimining oila va xotin-qizlar masalalari bo'yicha o'rinbosari bo'lib ishladi. O'zbekistonning barcha joylarida shogirdlarim borligidan hamisha faxrdaman. Ammo bitta orzum amalga oshmay kelar edi. U ham bo'lsa, shogirdlarim orasida Zulfiya nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo'lgan qiz yo'qligi edi. Ming shukur, shu yil bu baxt nasib etdi. Shogirdim — 11-sinf o'quvchisi Barno Samar-darova ushbu mukofot bilan taqdirlandi.

Darhaqiqat, pensiya pullaridan va qo'shimcha daromadlaridan o'zlarini bitirgan maktabga stipendiyalar tashkil etgan nuroniylarimizning soni yildan-yilga oshayotgani tahsinga loyiq. Ha, Qoraqalpog'istonda ham saholarni bo'ysundirgan, sabr va bardoshdan dars berayotgan, Ustyurt kengliklarini to'zgitgan qum bo'ronlarini yengishni, Vatanni ta'misiz sevishni, mashaqqatlar ustidan g'alaba qilishni yoshlarga o'rgatayotgan nuroniylar

oilalarning har biriga "Keksalar maslahati" guruhlari a'zolari birlashtirilgan.

Shaharning katta oyisi

Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on shahrida yashovchi, uzoq yillar shahardagi pedagogika kolleji direktori lavozimida ishlagan "Mehnat faxriysi" va "Mo'tabar ayol" ko'krak nishonlari sohibasi, ustoz pedagog Klara Hakimova hozir 82 yoshda. Uni kattaqo'rg'onliklar "Shaharning katta oyisi" deb ataydi. Klara ona Kattaqo'rg'on shahridagi har bir ko'cha-yu guzarda yashayotgan aholini ajdodi kimligini-yu avlodi kimligini juda yaxshi biladi. "Bir nuroniy o'n yoshga mas'ul" tamoyili asosida kattaqo'rg'oncha uslubini yaratgan Klara Hakimovaning uyidagi ish stolida bugun mahallasidagi uyushmagan, muammoli yoshlar bilan ishlash daftari turadi. Hozir "katta oyi"ning Zomin mahallasida uyushmagan va muammoli yoshlar yo'q. Bunga u qanday erishdi? Mahallaning har bir xonadonidagi yutuqlar va muammolar, yoshlarning nechtasi qayerda o'qiyotgani-yu qanchasi bu yil OTMga kirishga tayyorgarlik ko'rayotganini yaxshi biladi. Uyushmagan yoshlarni shahardagi hunarmandlarga birlashtirdi.

Bugungi kunda uning tavsiyasi bilan ishga joylashgan yoshlarning bittasi xususiy sartaoshxonasiga, bittasi chilangarlik ustaxonasiga ega. Oltita yosh institutda sirtqida o'qiydi. Bir nafari sotuvchiga yordamchi, ikki nafari shahardagi MTMda tarbiyachiga yordamchi, bir nafari qandolat sexida, ikki nafari restoran-da faoliyat yuritmoqda. Ularning oltitasi o'quv kontrakt pulini o'zi to'laydi.

"Zomin" mahalla fuqarolar yig'ini raisi, xotin-qizlar faoli Klara buvining shogirdi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi va profilaktika noziri shogirdlarining farzandlaridir. Xullas, hech biri buviga begona emas.

Yaqinda shahardagi istirohat bog'ida o'tgan "Uch avlod uchrashuvi"da kattaqo'rg'onlik nuroniylarning davrasida

"Shaharning katta oyisi" — Klara Hakimovaning xizmatlari alohida e'tirof etilib, shahar hokimining "Tashakkurnomasi" va qimmatbaho sovg'asiga loyiq ko'rildi.

Tarixiy uchrashuv

Kattaqo'rg'on shaharining Chinobod mahallasida yashovchi nuroniy Abdul-la bobo Barnoyevni hamma taniydi. U 2000-yilda Surxondaryo viloyati Sariosiyo va Uzun tumanlarida davlat chegaralarimizga tahdid qilgan xalqaro terrorchilarga qarshi jangovar harakatlarda qahramonlarcha halok bo'lgan serjant Ulug'bek Barnoyevning otasi. Kattaqo'rg'onidagi Samarqand shohko'chasi hozir Ulug'bek Barnoyev nomi bilan ataladi. Har gal qayergadir borsa, qaytib kelayotib bobo yo'l boshida, o'g'lining yirik surati yonida to'xtab, u bilan xayolan salomlashadi: "Salom, o'g'lim, men seni sog'indim. Chin dunyoda yaxshi yuribsanmi? Shahid ketgan barcha o'rtoqlariga mendan salom ayt. Biz haqiqatga duolar qilamiz. Sizlarga duolarimiz yetib boryaptimi?" deydi.

Ko'chaning so'lim hovlilaridan birida Barnoyevlar oilasi yashaydi. Abdullo bobo hovlida o'g'lining uy-muzeyini tashkil qilgan. Muzeidan yoshlarning qadami uzilmaydi. Abdullo boboga o'g'lining vafoatidan so'ng uning kiyimlarini olib kelib berishganida cho'ntagidan bitta xat chiqadi. Xatda Ulug'bekning chiroyli husnixati bilan:

"Orqaga qaytish yo'q, chekinish yo'q! Orqada O'zbekiston — Ona Vatan bor", deb yozib ko'yilgan edi.

Ha, yurtning mard o'g'onlarining mard ota-onalari bor. Mardlik o'zbekka otamerek, bobomerosdir. Abdullo bobodek nuroniylarning yonidan yosh-u qari tanimay o'tib ketishi mumkin emas. Shodiyo-na kunlarda ularni bir chekkada unutib qoldirish mumkin emas.

Prezidentimiz joriy yil Surxondaryo viloyatiga tashrifi chog'ida 2000-yilda Sariosiyo va Uzun tumanlarida davlat chegaralarida Vatan himoyasi uchun kechgan jangovar harakatlarda mardlarcha halok bo'lgan yigitlarimizning ota-onalari bilan uchrashdi. Ular orasida Abdullo bobo Barnoyev ham bor edi.

Bu tarixiy uchrashuv va suhbat mard o'g'onlar xotirasiga cheksiz hurmat va ularning ota-onalariga ehtirom ramzi bo'lib qalblarga muhrlanib qoladi.

Otamjonim usta Sulaymon bobo

— Otamjonimni "usta Sulaymon bobo" der edilar. U haj va umra ziyoratiga borish armoni bilan o'tib ketdi. Otamning otasi mulla Yodgor bobom ham bir umr Makkayu Madinadek ulug' qadamjolar armonida o'tgan. Momalarimiz-ku bunday muqaddas orzularini ovozi chiqarib aytishga qo'rqqan. Mana, bugun biz oilaviy haj va umra ziyoratlarida bo'ldik,



— deya sevinch yoshlarini yashirmaydi Samarqand viloyati Payariq tumanida yashovchi onaxon Sanobar Sulaymonova. — Hozir Imom Buxoriy ziyoratgohiga har yili dunyoning turli mintaqalaridan minglab ziyoratchilar keladi. Nuroniy-larimizning shukronalariga shukronalar qo'shildi. Bu yil payariqlik qori Yunus Shohmurodiy Saudiya Arabistonida o'tkazilgan Qur'on tilovati musobaqasida 1-o'rinni egallab, bosh sovrin sohibi bo'ldi. Bu musobaqada 50 mingdan ziyod qori qatnashib, 16 nafar yurtdoshimiz yarim finalga chiqqani faxr-u iftixor. Bu ham diniy bilimlarni egallashda O'zbekistonimizda faoliyat yuritayotgan Xalqaro islom akademiyasining fan doktorlari, hadisshunoslar, ustoz murabbiylar, mudarrislar dunyoda oldingi o'rinlarda turi-shining yana bir isboti.

Yonimizdagi afsonalar

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida o'tgan "Uch avlod uchrashuvi"ga taklif etilgan O'zbekiston Qahramonlari — tanilqil olim, fizika-matematika fanlari doktori, akademik Shavkat Ayupov va O'zbekiston faxriylarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash "Nuroni" jamg'armasi raisi, universitetning sobiq talabasi Sodiqjon Turdiyev bilan bo'lgan uchrashuvni universitet yoshlari "Yonimizdagi afsonalar tashrifi" deb atadi.

Iqtisodimizning bo'lajak egalari bergan savollaridan ko'rinib turibdiki, eng avvalo, ular shunday olijanob insonlarga zamon-dosh bo'lganidan iftixor. Yana muhim jihatlari — yoshlikni behuda o'tkazmaslik, o'zlikni va dunyoni anglash, mag'lubi-yatlarga taslim bo'lmaslik, halol mehnat, izlanish, o'rganish, ilm-fanda fidoyilik va g'alaba.

O'zbekiston Qahramonlari bilan ikki soatdan ko'proq davom etgan "Uch avlod uchrashuvi"ni men "Vatanni sevishni o'rganish darsi" deb atagan bo'lar edim. Ha, aynan shunday — Vatanni sevishni o'rganish saboqlari. Zero, ulug' qirg'iz yozuvchisi Chingiz Aytmatov aytganidek, "Inson yaxshilik qilishni yerdan topib olmaydi. Yaxshilik qilish yaxshilardan o'r-ganiladi".

Yaqinda Ohangaron shahrida "Oila — mehr va baxt qo'rg'oni" mavzusida tashkil etilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirga 50 yildan ortiq birga yashagan nuroniy onaxon va otaxonlardan iborat ibratli oilalar taklif etildi. O'sha kuni shahar istirohat bog'ida joylashgan amfiteatr yanada yog'dularga to'lib ketdi. Ular umr bo'yi turli sohalarda mehnat qilgan faxriylari, ishlab chiqarish ilg'orlari, kekse murabbiylar, ta'lim va tibbiyotimiz fidoyilari ekani sahnadagi katta ekranda ko'rinib turdi. Tadbir ishtirokchilari 50 yillik hayot yo'llari haqida gapirib berganlarida amfiteatrga to'plangan yoshlar qalbida havas va hayrat uchqunlarini ko'rdik.

— Ular har qanday sinovlarda taqdir ko'rguliklariga taslim bo'lmagan. Eng og'ir musibatlarni birga sadoqat bilan yenggan mehri insonlar. Ular halol mehnat bilan bolalarini rizqlantirgan otalar, ibo-hayo bilan qizlarni tarbiyalagan onalardir. Hech birini hayot tashvishlari chetlab o'tmagan. Mashaqqatli mehnat bilan oilasini kambag'allik botqog'idan olib chiqqan, kamtarinlik bilan el aro obro' topgan oddiy va sodda odamlar. Har birining tillarida shukrona duolari, — deydi biz bilan suhbatda "Nuroni" jamg'armasi Ohangaron shahri bo'limi raisi, hokim maslahatchisi Shavkat Komilov.

Mamlakatimizning shahar va tumanlarida uyushqoqlik bilan o'tayotgan turli tadbirlarda nuroniylarimizning duolarini eshitamiz. Ularning ajin bosgan qo'llariga bugun anvoiy gullar yashagan. Ozig'in barmoqlari ko'zlariga to'liyo. Ularning poyiga dunyo gullari poyondoz bo'lsa arziydi. So'g'in lablaridan taralgan shukronalar kumush qo'ng'iroqlardek vijdonimizni uyg'otib yuboradi. Biz uyg'omiz. Dunyo esa hamisha uyg'onniki bo'lgan va shunday bo'lib qoladi.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati" DUK

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-646.
41011 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 ta boq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Avaz Xudoyqulov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz: 100029,
Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy

Topshirildi — 00:15